



## YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY MADANIYATNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Egamberdiyev Ilxomjon Yigitaliyevich**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Mirzanov Sardor Umarqul o'gli**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ommaviy madaniyatning ta'siri va u bilan bog'liq dolzarb muammolar tahlil qilingan. Yoshlar ongida milliy g'oya, vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik kabi qadriyatlarni shakllantirishda ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlarini va ularni bartaraf etish choralari ilmiy asoslanganligi bilan asoslidir.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, harbiy-vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, ommaviy madaniyat, milliy qadriyat, milliy g'oya, vatanga sadoqat.*

Hozirgi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yuksaltirishda butun dunyoda globallashuv jarayonini har tomonlama chuqurlashuvi va axborot texnologiyalarining takomillashib borgani sayin milliy madaniyat, milliy qadriyatlar va azaliy an'analarni saqlab qolish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi ayrim "markazlar" boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti "jozibalari"ni, jumladan, "ommaviy madaniyat" ta'sirini imkon qadar keng yoyishga harakat qilmoqdalar. Ushbu harakatning asosiy maqsadi insonlarni milliy madaniyatdan uzoqlashtirish, dunyoni bir tizimga solib standart holatda, bitta oqim bo'ylab harakatlanishini ta'minlash va antimilliy g'oyalarini osonlikcha singdirish, ma'naviy begonalashuvni yuzaga keltirishdan iborat. Ushbu harakatlarni millat qadriyatlariga ta'siri jarayonida asosan mamlakat yoshlar ongini zaharlash asosiy vazifa qilib olinadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilsak, "ommaviy madaniyat" ya'ni pop-madaniyat – jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo'lgan madaniyat hisoblanadi. "Ommaviy madaniyat" mohiyatiga ko'ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to'lib toshgan. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, zamonaviy "ommaviy madaniyat"ning maqsadi insonlarni milliylikdan uzoqlashtirish, dunyoni bir tizimga solib standart holatda, bitta oqim bo'ylab harakatlanishini ta'minlashdan iborat bo'lib u makon, yosh, jins va millat tanlamaslik hususiyatiga ega.





“Ommaviy madaniyat” tahdidlarining inson ongiga salbiy ta’sirlari quyidagilardan iborat:

“Ommaviy madaniyat” inson ongini real hayotdan uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo‘naltiradi;

aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi;

insonni ishlab chiqaruvchiga emas, faqat iste’molchiga aylantiradi;

insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma’naviy jihatdan qashshoqlashtiradi.

Shuningdek, “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilarini oilalarga, ayniqsa yosh oilalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, har bir millatning, har bir insonning ma’naviyati va o‘ziga xos madaniyati shakllanishida oilaning o‘rni beqiyos. Sharq ayollari hech mahal oilada yetakchilikka da’vogar bo‘lmaganlar. Bu esa ularning oilada hech qanday qadrga ega emas, degan ma’noni anglatmaydi. Aksincha, oilaning biror muammosi, oilaning ikkinchi yarmini tashkil qilgan ayolsiz yechilmagan va amalga oshirilmagan. Shu ma’noda, ayollarimiz o‘zlarining oilada siqilgan, huquqlari cheklangan tarzda his qilmaganlar. Ammo “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari Sharq oilasida ayollar kamsitilishi, ularning erkaklar bilan teng huquqli emasligi haqida fikr yuritadilar. Ayniqsa yosh oilalarga bu o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkazmoqda. Masalan oila va nikoh masalalariga hayotda muhim emasligini, uni “yengil yashash”, “erkinlik”, “o‘zi uchun yashash” degan omillardan keyingi ikkinchi darajali o‘rinlarga tushirib tashlashni targ‘ib qilmoqda.[1]

Bunga asos qilib “nikoh bu tashvish”, “oila bu erkinsizlik” kabi tamoyillarni qo‘ymoqdalar. Vaholanki, ushbu “madaniyat” targ‘ibotchilari “erkinsizlik” deb atayotgan oila aslida bu muqaddas dargoh, insonlarni ezgu xulqqa o‘rgatadigan maskan ekanligini anglab yetmagan va bu hislarga ega emas insonlar desak to‘g‘riroq bo‘lar edi.

Mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yuksaltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Chunki ommaviy madaniyatga, u bilan yopirilib kelayotgan ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlariga milliy madaniyatni, milliy tarbiyani, milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimiz bilan qarshi tura olamiz. [2]

Bugungi kunda “Ommaviy madaniyat”ning quyidagi salbiy ko‘rinishlari e’tirof etilgan.

**Kitch** - hech qanday badiiy-estetik ahamiyatga ega bo‘lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish. Turli-tuman totemlar, tumor va boshqa shunga o‘xshash narsalarni taqib yuruvchilar. Buning xavfli jihati, ayniqsa islom diniga e’tiqod qiluvchilar orasida muammolarni keltirib chiqaradi. Ommaviy madaniyatning bu ko‘rinishi jamiyatnint barcha qatlamlarida uchraydi. Kelib chiqish sabablari asosan o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘zga qarashlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdir.

Ommaviy madaniyatning bu ko‘rinishi asosan yoshlar qatlamini qamrab oladi va kiyinish madaniyatida namoyon bo‘ladi. Masalan, turli-tuman yirtiq, so‘tilgan va qar





xil yozuvlar tushirilgan bosh kiyim, shortik, shim, futbolkalar va turli fotoplakatlar, hatto reklama roliklarida mavjud bo'ladi. Xatarli tomoni milliy qadriyatlar, milliy kiyinish madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu orqali ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaradi. [3]

**Strizm** – ehtirolarga berilgan holda teleboshlovchi, sportchi, aktyorlar va estrada xonandalarini ilohiylashtirish.

Ommaviy madaniyatning bu ko'rinishi nisbatan ko'p tarqalgan va eng xatarlilaridan biri hisoblanadi. Chunki bu holatda haddan tashqari ehtirolarga berilish natijasida suitsid (o'z joniga qasd qilish) holati ham kuzatiladi. Ommaviy madaniyatning bu ko'rinishi yuzaga kelishiga asosiy sabab ertangi kunini aniq ko'ra bilmaslik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik va boshqalar. Bu ko'rinish xam asosan yoshlar qatlamida ko'p uchraydi. Xavfli tomoni ijtimoiy-siyosiy faol bo'lmagan yoshlarni turli oqimlar ta'siriga tushib qolish ehtimolini oshiradi. [4]

**Xeppining** – oldindan rejalashtirilmagan, nogaxonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, aytaylik, turli buyumlarni, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»larni o'tkazish.

Ommaviy madaniyatning bu ko'rinishi o'z xususiyati jihatidan destruktiv axamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi. Bu ko'rinish ham nisbatan yoshlar qatlamida ko'proq uchraydi. Chunki yoshlardagi kuchli ehtirolar tufayli ijtimoiy meyorlar mos kelmay qolsa, bu jarayon yanada kuchayadi. Ijtimoiy, siyosiy xavfli tomoni bunda yoshlarning destruktiv kuchlar ta'siriga tushish xolati ortib boradi.

#### «Yog'ochning bo'shini qurt yeydi doim»

Afsuski, yoshlarda isyonkorlik, vaxshiylik, itoatsizlik kabi bir qancha illatlarni shakllantiruvchi bu «madaniyat»ning uchqunlarini o'zimizning ba'zi kliplarimizda, ommaviy axborot vositalarida, reklama va roliklarimizda ham ko'rish mumkin.

Insoniyat taraqqiyot davrini o'rgansangiz, bir narsaga duch kelasiz. Albatta taraqqiyotga ham, inqirozga ham jamiyat a'zolari orasida shakllangan va rivojlangan ommaviy madaniyatning ta'siri bo'lgan, ko'pincha bu ta'sir kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirilgan. [5]

Bugungi kunda ba'zi bir davlatlar va xalqlar o'z ta'sir doirasini oshirishda kuch ishlatish yo'lidan ko'ra «informatsion xuruj»lar orqali kurash olib borishni samarali vosita deb bilmogda.

Har bir inson demokratiyaning mazmun-moxiyatini, ya'ni xalq hokimiyatining asosiy omili inson ekanligini, insonning ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy, iqtisodiy va ma'naviy faol bo'lishi siyosiy uchburchakda, ya'ni jamiyat, davlat va shaxs munosabatlarida aks etishini fuqarolik pozitsiyasi nuqtai nazaridan tafakkur qilmas ekan, jamiyat va davlat ishlarida, umuman taraqqiyotda o'ziga xos muammolarning kelib chiqishi tabiiy. [6]





Aholining asosiy qismi, ya'ni 65 foizini yoshlar tashkil etadigan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga e'tibor davlat e'tiborida ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mamlakatimiz yoshlarining har tomonlama sog'lom va bilimli bo'lishlari borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmokda. Biroq shunga qaramay, ba'zi bir davlatlar va xalqlar tomonidan dunyoda o'z ta'sir doirasini oshirish maqsadida «informatsion xurujlar» orqali «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirishni, ayniqsa faol bo'lmagan yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada kuchaytirishni talab etadi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.
2. "O'zbekiston Respublikasi mudofaa va harbiy xizmat sohasidagi davlat siyosati to'g'risida"gi farmonlar va qarorlar, Toshkent, 2020–2025.
3. Khanimkulov Anvar Rahimkulovich. "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarligi ruhida tarbiyalashni takomillashtirish." *Conference Zone*. 2022.
4. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. "Development of Professional Competencies of Pre-service Military Education Students Based on Information and Communication Technologies." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 3, 11 Mar. 2022, pp. 266-269.
5. Usmonov Adxam Abdulhamid ovich. "The role of social pedagogy in the development of feelings of love for the motherland and patriotism in students and schoolchildren." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 171-174.
6. Egamberdiyev Ilhomjon Yigitaliyevich. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Archive of Conferences. – 2021. – C. 11-13.